



Suryoniy tili

Vikipediya, erkin ensiklopediya

Suryoniy tili (ܣܘܪܝܝܬ) — somhom tillari oilasiga mansub oromiy tillarining sharqiy guruhidagi oʻlik tillardan biri; Yuqori Mesopotamiyadagi qad. Edessa hududidan Erongacha tarqalgan. Mil. III asrdan Old Osiyodagi oromiy tilida soʻzlashuvchi xristianlarning adabiy tili boʻlgan. VIII asrdan boshlab Suryoniy tili asta sekin arab tili tomonidan siqib chiqarilgan. Hozirgi vaqtda Eron, Iroq, Suriya va boshqa mamlakatlarda yashovchi nasturiylar va yaʼqubiylarning ibodat tili hisoblanadi. Yozuvi oromiy yozuvidan kelib chiqqan suryoniy alifbosining 3 ta koʻrinishi [estrangelo, serto va nasturiy]ga asoslangan. Unda mil. I asr ga mansub oʻyma yozuv matnlari, III—XIV asrlarga mansub boy xristian diniy adabiyoti mavjud.

Suryoniy tili	
Milliy nomi	ܣܘܪܝܝܬ
Mamlakatlar	 Turkiya ^[1]
Soʻzlashuvchilarning umumiy soni	575 000 ^[2]
Alifbosi	Suryoniy yozuvi va Estrangela
Til kodlari	
ISO 639-2	syc ^[3]
ISO 639-3	syc ^[3]



Ushbu maqolada Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) maʼlumotlaridan foydalanilgan.



Jahon tillaridan biri haqidagi ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, (https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Suryoniy_tili&action=edit) Vikipediyaga yordam berishingiz mumkin.

1. *(unspecified title)* (<https://scriptsource.org/country/TR>)
2. *(unspecified title)* (https://en.wikipedia.org/wiki/Neo-Aramaic_languages)
3. *(unspecified title)* (<https://op.europa.eu/web/eu-vocabularies/at-dataset/-/resource/dataset/language>)

"https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Suryoniy_tili&oldid=6135337" dan olindi